



SHIRINMIYA-(GLYCYRRHIZA GLABRA L.) NING BOTANIK

TAVSIFI VA ISHLATILISHI

БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

СОЛОДКИ-(GLYCYRRHIZA GLABRA L.)

BOTANICAL DESCRIPTION AND USE OF LICORICE-

(GLYCYRRHIZA GLABRA L.)

Yursunova O‘g‘iloy Mamitali qizi

Farg ‘ona Davlat Universiteti biologiya yo ‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Shirinmiyaning (*Glycyrrhiza glabra* - L) dorivor xususiyatlari, xalq tabobatidagi ro‘li va turli sohalarda qo‘llanilishi haqida ma’lumot beriladi. Shirinmiya nafas yo‘llari, oshqozon-ichak tizimi va immunitet bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu o‘simlik oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada shirinmiyaning inson salomatligi va turli sanoat tarmoqlaridagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Glycyrrhiza glabra* L, gerbitsit , chuchukmiya, provitamin A, shirin ildiz, gul, meva .

Аннотация: В статье представлена информация о лечебных свойствах солодки голой (*Glycyrrhiza glabra* - L.), ее роли в народной медицине и применении в различных областях. Солодка широко используется для лечения респираторных, желудочно-кишечных и иммунных заболеваний. Это растение также играет важную роль в пищевой, фармацевтической и косметической промышленности. В статье анализируется значение солодки для здоровья человека и различных отраслей промышленности.

Ключевые слова: *Glycyrrhiza glabra* L., гербицид, солодка, провитамин A, корень солодки, цветок, плод.

Annotation: This article provides information about the medicinal properties of Licorice (*Glycyrrhiza glabra* - L), its role in folk medicine and its use in various

fields. Licorice is widely used to eliminate problems related to the respiratory tract, gastrointestinal system and immunity. This plant also plays an important role in the food, pharmaceutical and cosmetic industries. The article analyzes the importance of licorice in human health and various industrial sectors.

Keywords: *Glycyrrhiza glabra L*, herbicide, licorice, provitamin A, licorice root, flower, fruit.

KIRISH

Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra L.*) — dukkakdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, ildizpoyali o‘t o‘simlik. Poyasi tarmoqli, qo‘pol, balandligi 40-150 sm ga yetadi va tik o‘sadi.

Barglari murakkab, toq patsimon, cho‘ziq shaklda poyada navbatma-navbat joylashgan. Gullari binafsha rangli, boshqoqga o‘xshash to‘pgulda yig‘ilgan. Mevasi-cho‘zinchoq dukkak. Aprel-iyun oylarida gullab, keyin meva beradi. Urug‘ hamda vegetativ usulda (ildizpoyalari orqali) ko‘paytirish mumkin. Ildiz tizimi kuchli rivojlanib, yer ostiga 3 metr chuqurlikgacha boradi. Ildizpoyalardan yer usti novdalari o‘sadi, urug‘i qattiq qobig‘ ga ega bo‘lib, 30-35°C haroratda unib chiqadi. (1-rasm).

Turkum nomi *Glycyrrhiza*-grekcha so‘z bo‘lib, “glykys” - shirin, “rrhiza” ildiz degan ma’noni anglatadi



1- rasm .*Glycyrrhiza glabra L.*-Shirinmiya

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ISHLATILISHI

Ushbu o'simlik O'rta Osiyoning hamma rayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Hamma chopiqtalab ekinlar, ayniqsa, beda va donli ekinlar orasida uchraydi, sug'orish kanallari bo'yłari, ariq yoqalari, bog' va uzumzorlarda o'sadi. Kurashish choralar: yerni haydashda ildiz qoldiqlarini yo'qotish; nihollari paydo bo'lgach, ekin qator oralariga chuqur ishlov berish; don ekinlariga gerbitsidlar purkash .

Shirinmiyadan sanoat miqyosida tush, gutamin hamda ko'nchilik korxonalari uchun qimmatbaho bo'yoqlar olinadi. Hozirda ushbu o'simlik jahon bozorida juda qadrlanadigan xom ashyo hisoblanib, uni yetkazib beradigan asosiy xo'jaliklar O'rta Osiyo respublikalari, jumladan, Qozog'istondir. Mamlakatimizda esa Amudaryo qayir yerlarida shifobaxsh shirinmiya yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil etilgan. Shuningdek Qoraqalpog'iston, Surxondaryo viloyatida ham shirinmiya ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

Shirinmiya-chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Chunki uning tarkibida oqsil, kletchatka, provitamin A va boshqa foydali moddalar bor. Undan oziq-ovqat sanoatida turli xil ta'mli sharbatlar, likyorlar, shirinliklar tayyorlanadi.



2-rasm. Shinimianing tashqi tuzilishi .

Shirinmiya o'simligi qadimdan ko'plab olimlarni o'ziga jalb qilib kelgan va hozirgi kunda ham ko'plab olimlar hamda yosh tadqiqotchilar jumladan magistrlar, doktorantlar va xatto tadbirkor, dehqonlar ham ushbu noyob o'simlikka katta qiziqish bilan yondashmoqda. Qadimgi yunon olimlari Gippokrat va Feofrast shirinmiya



ildiziga yuqori baho berib, nafas yo'llari kasalliklarida ishlatalishni tavsiya etgan. Ushbu o'simlik Abu Ali ibn Sino asarlarida ham uchraydi.

Olimlardan Buass'ya (Boisser 1872) va Engler (Engler 1894) *Glycyrrhiza* turkumlarini o'rgangan. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasи o'qituvchisi N.A.Yuldasheva ham shirinmiya o'simligini tabiiy sharoitda o'rganish bo'yicha o'z ilmiy ishlarini olib borgan. Biz o'rganayotgan shirinmiya (*g. glabra*) turi Eugycyrrhiza seksiyasiga mansub.

B.f.f.d, dotsent M.A.Yusupova "Unum dorligi past bo'lgan maydonlarda qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) ekishning foydali xususiyatlari nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: sho'rangan va gipsli tuproqlarda qizilmiyani ekish maqsadga muvofiqdir. Chunki 5 yil qizilmiya o'stirilgan yerda tuproqning sho'ranganlik darajasi 2,5 barobargacha kamayib, azot, gumus, bilan to'yinadi.

A.J.Qo'ziyev Silliq shirinmiya *Glycyrrhiza Glabra L.* urug'idan ko'chat yetishtirish va o'stirishning bioekologik asoslari mavzusida dissertatsiya ishini yoqlagan, ekin maydonlarida o'stirilgan silliq shirinmiyaning yer osti hosildorligi va undagi to'plangan foydali moddalarning tarkibi o'simlik yoshi, qismlari va o'stirilgan sharoitiga qarab turlicha.

Shirinmiya o'simligi butun dunyo olimlarining qiziqishiga sabab bo'lgan. Shirinmiya dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ekib o'stiriladi, uning eksport va import hajmi ham juda yuqori. Angliya, AQSh, Ispaniya, Italiya, Fransiya Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Eron, Afg'oniston, Suriya, Azarbajxon, Turkmaniston va O'zbekistonda iqtisodiy maqsadlarda katta maydonlarda ekiladi. Har yili Xitoy hamda AQSH kabi davlatlar katta hajmdagi shirinmiyani import qilib oladi. Yurtimizda ham shirinmiyaning qimmatli xususiyatlarini inobatga olgan holda ushbu o'simlikni katta maydonlarda yetishtirishga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

XULOSA

Shirinmiyani yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar hamda amaliy ishlar uning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik ahamiyatini ham oshirib kelmoqda. Bu o'simlik qishloq xo'jaligi, sanoat va tibbiyot sohalarida



keng qo'llanilib, jahon bozorida yuqori talabga ega xom ashyo sifatida e'tirof etiladi. Uni ekish va yetishtirish tuproq unumdorligini oshirish, sho'rlanishni kamaytirish hamda qishloq xo'jalik maydonlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida shirinmiya eksport va import hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Yurtimizda ham ushbu o'simlikka davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani uning istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shifobaxsh ne'matlar M.Nabihev, V.Shalnev, Toshkent – “Mehnat” - 1989
- 2.D.Saidov, L.Pauzner, L.Shamsuvaliyeva “Shirinmiya”, “O'zbekiston” nashriyoti, Toshkent-1975
- 3.Ashermetov O.A., Badalov M.M. Shirinmiya yetishtirish bo'yicha qo'llanma. O': 1995.
- 4.Muhammadxonov C., Jonguzarov F. O'simlikshunoslikga oid ruscha o'zbekcha izohli lug'at.-T.:Mehnat, 1989.-320 b.